



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAMANGAN VILOYATI
XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI**

**To`raqo`rg`on tuman xalq ta'limi
muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash
va tashkil etish bo'limiga qarashli**

**4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich mehnat fani o'qituvchisi**

MAQSUDOVA NASIBANING

**“O’rgan-o’rgat” va «Dars muqaddas» tavsiyasi
asosida 4-sinlar uchun mehnat
fanidan bir soatlik**

**Dars
ishlanmasi**

To`raqo`rg`on tuman

Ushbu dars ishlanmasidan umumta'lim maktablarining boshlang'ich mehnat fani o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi: Maqsudova Nasiba
4-maktab boshlang'ich mehnat
fani o'qituvchisi

Taqrizchi: P.Aliyeva
O'quv ishlari bo'yicha
direktor o'rinbosari

Dars ishlanma 4-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabi metodika kengashining «____»

_____ yildagi _____sonli
qarori bilan foydalanishga tavsiya etildi.



4-Umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf
mehnat fani o'qituvchisi

Maqsudova Nasiba

Mavzu: Qorbobo ustaxonasida archa bezaklari yasash.

Maqsad:

Ta'limiy: O`quvchilarga DTS asosida bilim berish estetik didini o`stirish, badiiy fikrlash doirasini kengaytirish, bilish faoliyatini shakllantirish, archa bezaklari yasashni o`rgatish.

Tarbiyaviy: O`quvchilarga Vatanparvarlik, ahloqiy, siyosiy, iqtisodiy

mehnat tarbiyasi berish, kasbga
yo`naltirish, tevarak-atrof, yashil
alam boyliklarini asrashga, ona
tabiatni muhofaza qilishga
o`rgatish.

Rivojlantiruvchi: O`quvchilarni BKMLarini
o`stirish, ijodkorlikka
yo`naltirish, mustaqil fikrlashga
o`rgatish, fanga qiziqtirish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Usul: Amaliy, interfaol,
tushuntirish, noan`anaviy.

Jixozi: Ko`rgazma, archa bezaklari
namunasi, rangli qog`oz,
qaychi, yelim, ip, rasmlı test,
TSO.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism

a) salomlashish

b) davomatni aniqlash

2. O`tilan mavzuni mustahkamlash.

- Bolajonlar omonmisiz?

Hozir darsga tayyormisiz?

- Ha, hammamiz omonmiz.

Bugun darsga tayyormiz.

Shiorimiz:

Bilim ol, hunar tanla.

-O`quvchilar bugun darsimizni musobaqa usulida olib boramiz.

Uch guruhga bo`lamiz

1. Shifokor

2. Tikuvchi

3. Quruvchi

O`quvchilardan ushbu kasbdagi
insonlarning vazifasini so`rayman.

Kim ko`p o`yinchoq to`plasa shu guruh
g`olib bo`ladi. Yasalgan o`yinchoqlarni javob
bergan o`quvchiga tarqataman.

Siyosiy savol-javob o`tkazaman.

- Biz qaysi vatanda yashaymiz?
- O`zbekistonda.
- O`zbekiston Mustaqil bo`lib nimalarga
erishdi?
- Bayroq, gerb, madhiya va so`miga.
- Bayroq qachon qabul qilindi?

Bayroq haqida she`r.



- Gerb, madhiya qachon qabul qilindi?



- Konstitutsiya qachon qabul qilindi?

- 2012 – yil qanday yil?

- Prezidenti mizni qanday asarlarini bilasiz?



- Hozir o'lkamizda qanday fasl?
- Yo'l harakati qoidalariga rioya qilish yo'llarda sirpanchiq uchmaslik haqida tushuntiraman.



- Qish fasli necha oydan iborat?
- Necha kundan iborat, nechta o'nlik, nechta birlik?

- 2013-yil qanday yil?
- Kelajakda kim bo`lmoqchisiz?
- Konstitutsiyaning 37, 40, 41 moddalarida nima deyilgan?

Barcha savollar katta shar ichida
o`yinchoqlarga yashiringan bo`ladi.

3x4

Interfaol o`yini o`tkazaman. O`yin shartini o`quvchilarga tushuntiraman. 3x4 bo`lganligi uchun tayanch qish mavzusiga oid so`zlar yozamiz. O`quvchilar 4ta so`zdan iborat gap tuzib yozadilar. Uch guruhdan bittadan o`quvchi chiqadi. Kelajakda kim o`qtuvchi bo`lmoqchi?


Qorbobo	Sovg'a	Archa
---------	--------	-------

Bayramda qorbobodan sovg'alar oldik.	Hammaga sovg'a olish yoqadi.	Biz archani chiroyli bezatdik.
---	------------------------------------	--------------------------------------

Shu o'quvchi chiqib o'quvchilar ishini tekshirib baholaydi.

Savollarga javob berib qorboboni qismlarini yasaydilar. Har bir guruh o'quvchilari ishtirok etadi. Qorbobo shaklini doskada yasaydilar.





Mehnat fani nimani o`rgatadi?

Mehnat faniga qanday DTS talablari
qo`yilgan?

Mehnat darsida nimaga amal qilinadi?

O`quvchilar bizning darsimizga qorbobo mehmonga keldi. Qorbobo ustaxonisida archani bezatish uchun o`yinchoqlar yasaymiz.

Yangi mavzu bayoni.

Reja:

1. Xavfsizlik qoidalari.
2. Vaqtdan unumli foydalanish.
3. Aniq va sifatli qilib o`yinchoqlar yasash.

Mehnat inson hayotini bezaydi.

Texnika xavfsizligi qoidalarini tushuntiraman. Qaychidan to`g`ri foydalanishni eslataman.

Kerakli jixozlarni nomini aytib o`taman.

Rangli qog`ozda to`rtburchak shaklini qirqib olamiz uni buklab doira qirqib olamiz doiraning o`rtasidan qirqib biriktiramiz. Aylana

sharcha xosil bo`ladi. Ekranda rasmlar chiqadi. Uchburchak shakli, lola gul shaklini xam yasaymiz. Archaga osish uchun ip o`rnatamiz.

Doira qirqishni o`rgan




O`rganganingiz bo'yicha qog'ozga kvadrat chizing.


Mana shunday qilib 4 bo'lakka buking.

Ochiq burchaklarini qalam bilan mana shunday qilib belgilang.

Endi belgilagan
joyingizdan qirqing.

Kvadratni oching.
Qanday shakl paydo
bo'ldi?





Ularni qirqilgan chiziqlar bo'yicha bir birining ustiga qo'yib yopishtiring. Qor parcha uchun turt burchak qirqib olib uni buklaymiz uchburchakni yana buklab tasmachalar kirkib olamiz qirqilgan tasmachalarni bir-biriga yelimlaymiz 5 ta tayyor shaklni bir biriga birlashtirib qorparcha yasaymiz. O`quvchilar ishini nazorat qilib boraman. Kapalak, jo`ja, gul, baliq andozalarini o`quvchilarga tarqataman. O`quvchilar andozadan foydalanib o`yinchoqlar yasaydilar ishini tugatgan o`quvchi sinfdagi

archaga o`yinchokni osadi rag`batlantirib
baxolayman.

Dam olish daqiqasi

Mehnat haqida maqollar aytish g`olib
guruhni rag`batlantiraman.

Sahna ko`rinishi.

«**Laqma it**»

4-sinf o`quv darsligidan.

Birdan tushib qoldi sovuq.

Itning ko`rpa yostig`i yo`q.

Na uyi bor, na boshpana.

Xech kimi yo`q- yakka yana

Qish keladi qilich olib

Bo`ron bilan dovrug` solib

Qaltiraydi kuchuk dir-dir

Sovuq deydi ichkari kir.

Sahna ko`rinishi orqali o`quvchilarni
dangasa bo`lmaslikka o`rgataman.

It yozda uy qurmagani uchun sovuqda
qolganini o`quvchilarga tushuntiraman.
Ertakning oxirida muammoli topshiriq it kelasi

yili nima qiladi deb o`ylaysizlar. O`quvchilar o`z fikr mulohazalarini bildiradilar.

O`quvchilar rollarga bo`linib ijro etishadi. Ertakni oxirida muammoli topshiriq. Ertakdagi it nima qiladi? O`quvchilar mu-lohaza yuritadilar.

3. Topishmoqlar

Xech oyoqda turmayoq,
o`rmalar jonli tayoq.

(ilon) muchal yili

Paxta misol xo`p momiq,
Erda yotsa ko`p sovuq.

(qor)

Besh xonaga bir yo`lak,
Qo`lingga loyiq ko`ylak.

(qo`lqop)

Guruh sardorlariga rasmlı test beraman.
Rag`batlantiraman.

Mehnat inson hayotini bezaydigan, unga baxt-saodat keltiruvchi, boylik, farovonlik baxsh etuvchi yagona omildir. Mehnatning kata-kichigi bo`lmaydi. Muximi uni oxiriga yetkazish.

Mehnat kishidan sabr-bardosh, intizom talab etadi. Boshlagan ishini oxiriga yetkazish uchun inson irodali bo'lishi kerak, sabr-toqat bilan uni chiroyli, tartibli qilib bajarishi lozim. Biror kasbga qiziqib uni o'rganishi lozim.

Hamma narsa hunarda
Bog` yaratdik cho'llarda
Sharaf-shonim hunarim
Hunar o'rgan, jon o'rtoq
Hunarga olam chanqoq.

O'quvchilar bajargan ishini ko'rib sifati, kamchiligini nazorat qilib baholayman. Rangli qog'ozni isrof qilmasdan tejab, to'g'ri foydalangan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Mana o'quvchilar insonning qo'li gul deb bejizga aytilmagan. Archamiz o'yinchoqlar yordamida chiroyli bezatildi. Guruhlarning to'plagan o'yinchoqlariga qarab g'olibn i aniqlaymiz.

VAZIFA: Archa o'yinchoqlari yasash.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1 Mehnat darsligi 4-sinf.

2 Boshlang'ich ta'lim jurnali 2012 yil

3 O`qish darsligi 4-sinf

4 Moxir qo'llar qo'llanmasi.